

## KNAUF-Rotband Finish

Yakuniy gipsli shpaklyovka

Quruq qurilish aralashmalari

08/2025



### Qo'llanish sohasi

KNAUF-Rotband Finish ichki qo'llash uchun polimer qo'shimchali yopishqoq gips asosidagi quruq shpaklyovka aralashmasidir. Beton, gipskarton qoplamalar, gips va sementli suvoqlar yuzasini yupqa qatlamda shpaklyovkalash hamda bo'yoq, gulqog'oz va boshqa dekorativ qoplamalar uchun yuqori sifatli yuza chiqarishga mo'ljallangan. Gipskarton qoplamalarning choklarini yamash uchun qo'llanilmaydi.

### Qadoqlash va saqlash

Aralashma qog'oz qoplariga 20 kg dan qadoqlanadi. Qoplar quruq xonada yog'och tagliklarda saqlanadi. Yirtilgan qoplardagi material birinchi navbatda ishlatib yuboriladi. Shikastlanmagan qadoqda saqlash muddati - tayyorlangan sanasidan boshlab 6 oy. Tayyorlangan sanasi qopning yonboshida ko'rsatilgan. Saqlash muddati o'tgan mahsulot va qadog'i maishiy chiqindi sifatida utilizatsiya qilinadi.

### Texnik xususiyatlari

- Shpaklyovka qatlamining qalinligi:  
minimal: 0,2 mm  
maksimal: 5 mm
- Zarralar olchami: 0,2 mm dan katta emas
- Mustahkamligi:  
siqilishda:  $\geq 2,0$  MPa  
egilishda:  $\geq 1,0$  MPa

**KNAUF-Rotband Finish****Yuzani tayyorlash****Tozalash**

Yuzaning kir, chang va ko'chgan joylari tozalanadi, betondan qolip moyi qoldiqlari olib tashlanadi. Turtib chiqqan joylar tekislanadi, metall elementlar korroziyadan himoyalanaadi. Asos tekis, mustahkam, quruq, harorati +5 °C dan baland bo'lishi kerak.

**Astirlash (Gruntlash)**

Gipskarton qoplamalar, gips va sement suvoqlar yuzasiga KNAUF-Tifengrund astari (gruntovkasi) bilan ishlov beriladi. Zich, silliq, namlikni kam shimuvchi va shimmaydigan yuzalarga, masalan, betonga shpaklyovkaning yuza bilan adgeziyasi (birikishi) yaxshilanishi uchun KNAUF-Betokontakt astari (gruntovkasi) bilan ishlov beriladi. Surtilgandan keyin astari (gruntovkasi) quyidagi muddatlarda quritiladi: KNAUF-Tifengrund - 3 soat, KNAUF-Betokontakt - 12 soat. Astirlangan (Gruntovkalanagan) yuzaga chang tushishiga yo'l qo'yilmaydi.

**Materiallar sarfi**

Materiallar sarfi 1m<sup>2</sup> yuzaga yo'qotishlarni hisobga olmagan holda ko'rsatilgan.

Material	O'lcham birligi	Miqdori
KNAUF-Rotband Finish	kg.	1,0
KNAUF-Tifengrund	kg.	0,1
KNAUF-Betokontakt	kg.	0,23

\* shpaklyovka qatlami qalinligi 1 mm bo'lganda

**Ish tartibi****Qorishmani tayyorlash**

KNAUF-Rotband Finish quruq shpaklyovka aralashmasi toza suvli idish yuzasi bo'yicha teng taqsimlab, suv sathiga yetgunicha sepiladi (1 kg quruq aralashmaga, taxminan, 0,65-0,7 l suv yoki 1 qopga (20 kg), taxminan, 13-14 l suv nisbatida). Aralashma solingan materialni namlanishi uchun 2-3 daqiqaga qoldiring va qurilish mikseri yordamida past aylanishlarda 1-2 daqiqa davomida bir xil konsistensiyaga kelguncha aralashiring, qo'shimcha quruq aralashma qo'shmasdan. Zarur bo'lsa, talab qilingan konsistensiyaga erishish uchun suv qo'shing. Aralashmani 5-8 daqiqaga qoldiring va yana 1-2 daqiqa davomida aralashiring. Quruq aralashmaga qo'shiladigan suv harorati +5 °C dan +30 °C gacha bo'lishi kerak. Bundan issiqroq suv shpaklyovka qorishmasining suv tutish qobiliyatini yomonlashtiradi va shpaklyovka yorilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shpaklyovka aralashmasiga boshqa komponentlar qo'shish mumkin emas, chunki bu uning xususiyatlarining sezilarli darajada yomonlashuviga olib keladi! Quyulib qolgan shpaklyovka qorishmasi ishlatilmaydi, suv qo'shib aralashirilishi uning ishchi xususiyatlari tiklanishini ta'minlamaydi. Kir idish va asboblarning materialning qo'llanish davomiyligi qisqarishiga sababchi bo'ladi. Shpaklyovka qorishmasi ishchi xususiyatlarining saqlanish davomiyligi quyulish boshlangunicha, kamida, 100 daqiqaga.

**Manzil:**

Toshkent sh, Shaxrisabz q, 2, Tower 2, 5 qavat

**Kontaktlar:**

+998 78 150 11 59  
+998 78 150 11 60  
+998 78 150 11 61

**Surtilishi va tekislanishi**

Bir qatlamda yuzani to'liq shpaklyovka qilishda material yuzaga surtiladi va keng shpatel yoki tekislagich bilan tekislanadi. Material yuzaga yoyib chiqilgach, ortiqcha joylari olinib va chuqurchalari to'ldirilib, silliq qilinishi zarur. Zarur bo'lganda, ortiqcha aralashmani devorning boshqa joylariga surtish mumkin. Keng joylarda 25 °C dan yuqori haroratli xonalarda ishlaganda ikki qatlamli suvoq tavsiya etiladi, birinchi material silliq qilib, to'la qurigandan keyin yakuniy ikkinchi qatlam surtiladi. Tarkib tez qotib qolmasligi uchun shpateldagi qorishmani chelakka qaytarib solish taqiqlanadi. Qorishmaning ishlatilishiga yaroqlilik vaqti 100 daqiqadan kam emas. Devorga material bilan ishlov berish vaqti qorishmaning ishlatilishiga yaroqlilik vaqtidan farq qilishi mumkin va bu qator omillarga (havo harorati, asosning shimish qobiliyati va boshqalar) bog'liq. Quyulib qolgan shpaklyovka qorishmasi ishlatilmaydi. Suv qo'shib aralashirilishi uning ishchi xususiyatlari tiklanishini ta'minlamaydi. Tozalanmagan idish va asboblarning qorishma bilan ishlash vaqtini qisqartiradi. Asbob-uskunalar ishdan keyin darhol suv bilan yuviladi. Barcha keyingi ishlar (gulqog'oz yopishtirish, bo'yash) faqat shpaklyovka to'liq qurigandan keyin o'tkazilishi kerak. Ehtimoliy notekisliklar qumqog'ozlash orqali yo'qotiladi.

**Tavsiyalar**

+5 °C dan past va +30 °C dan yuqori haroratlarda ishlatilmaydi. Yuqori haroratlarda qayta ishlash vaqtini qisqartiradi. Quyosh nurlarining qurimagan shpaklyovkaga to'g'ridan-to'g'ri tushishidan va shpaklyovka quruyotgan xonada yelvizakdan saqlanish lozim. Ish jarayonida foydalaniladigan barcha asboblarning zanglamaydigan materialdan tayyorlangan bo'lishi kerak.

**Asboblarning**

- Shpaklyovka qorishmasini tayyorlash uchun idish;
- Shpaklyovkani qorishtirish uchun metall shpatel-kurakcha;
- Suvoq mikseri (N > 800 Vt);
- Keng metall shpatel (kengligi 200-300 mm);
- Tashqi va ichki burchaklar uchun metall shpatel;
- Shpaklyovkasi qotgan yuzani qumqog'ozlash uchun qumqog'ozlovchi to'rlu qirg'ich.

**MUHIM!**

Quruq gips aralashmalar turli rangda bo'lishi mumkin - oqdan tortib, to kulranggacha, hatto, pushti bo'lishi mumkin. Bu gips toshida tabiiy qo'shimchalar mavjudligi bilan tushuntiriladi. Aralashma rangi uning xususiyatlariga hech qanday ta'sir qilmaydi.

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalangan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.